

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

HIKOYA JANRIDA NUQTAYI NAZAR VA BADIY ZAMON

Cho‘liyeva Nilufar A‘zam qizi,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(Phd), O‘zMU doktoranti

Annotatsiya: Maqolada hikoya janrida nuqtayi nazar va badiiy zamon xususiyatlari aloqadorlikda Nazar Eshonqul hikoyalari misolida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: hikoya, “nuqtayi nazar”, badiiy zamon, roviy, muallif, monolog, dialog, badiiy makon.

Аннотация: В статье на примере рассказов Назара Эшанкула анализируются «точка зрения» в жанре рассказ и особенности художественной времени.

Ключевые слова: рассказ, «точка зрения», художественное время, повествователь, автор, монолог, диалог, художественное пространство.

Annotation: Using the example of Nazar Eshankul's stories, the article analyzes the “point of view” in the short story genre and the features of artistic time.

Key words: story, “point of view”, artistic time, narrator, author, monologue, dialogue, artistic space.

Badiiy asar tahlilida “nuqtayi nazar” poetikasi muallif-qahramon-kitobxon oralig‘idagi nozik tasviriy nuqtalarni asar voqeligi, uning kompozitsiyasi, matniy ritmi, badiiy zamon-makon kabi birliklar bilan tutashib turuvchi tushunchadir. Umuman, nuqtayi nazar asarni hikoya qilish “texnika”sini ta‘minlab beruvchi badiiy me‘zondir. Bu jarayonda hikoya qiluvchi nuqtayi nazariga ko‘ra asardagi joriy vaqt almashinib boradi. Ya‘ni roviyning “uch o‘lchamli fazodagi o‘rni ko‘pincha matnda o‘rnatilishi mumkin bo‘lganidek, qator hollarda uning vaqtdagi o‘rni ham aniqlanishi mumkin. Bunday holda, vaqtning haqiqiy hisobi (hodisalar xronologiyasi) muallif tomonidan personaj pozitsiyasidan yoki o‘z pozitsiyasidan amalga oshirilishi mumkin” [2]. Hikoya janrida ham muallif va qahramon nuqtayi nazari orqali asardagi badiiy zamon xususiyatlari aniqlashadi.

Odatda, hikoyachi shaxsi (aksariyat, I, III shaxslarda bo‘lishi), asarda ishtirok etish hamda xabardorlik darajasi (cheklangan yoki cheksiz nuqtayi nazari), hikoyachilar soniga ko‘ra nuqtayi nazar tasniflanadi. Zamonaviy o‘zbek nasri hikoyalarida bu tasniflarning barcha misollarini ko‘rish mumkin. Jumladan, Nazar Eshonqulning “Ajr” hikoyasida muallif roviy tilidan “u” tili (III shaxs)dan hikoya qiladi. Hikoyadagi badiiy vaqt ota va o‘g‘ilning suhbatidan boshlanadi. Hikoyaning kirish qismida roviy qahramon tilidan aytilgan monolog esa muallif nuqtayi nazarini boshqa jihatdan ochib beruvchi hamda voqelik fonini tashkil etuvchi “parda” vaifasini bajargan. Umumiy g‘oya sifatida asarda birlashtirib turuvchi fikrlar majmuini muallif ayni shu monolog orqali beradi va bu monolog hikoyadagi badiiy

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

vaqtga parallel tushadi: “- Sen qo‘shiq ayt, Zubayda, yonib-yonib qo‘shiq ayt – o‘zing ko‘rmagan bu dunyoning ranglari haqida, oftob nuri, buloq suvi, daraxt gullari, chechaklar va qizg‘aldoqlar haqida qo‘shiq ayt... Sen jamiki tiriklik o‘latdan qirilib ketgan, jamiki o‘simlik quvrab-qovjirab qolgan, qip-qizil bo‘lib jizg‘anagi chiqib yotgan sahroda, qarg‘ish tekkan bu biyobonda ochilgan bir to‘p nafarmon gulsan” [4:16-17] Matnda monolog tugagach, roviy nuqtayi nazari vositasida siyohrang tun, jazirama dala uzra oltin kalavadek cho‘zilgan yo‘l tasviri chiziladi. Keyin roviy nigohi “yo‘lda yalangoyoq ketayotgan barvasta gavdali odam” va “uning yelkasida o‘tirgan jikkakina chol” ga qaratiladi. Nigoh fokusi o‘zgargach, badiiy vaqt tizgini ular o‘rtasidagi dialogga o‘tadi. Shu holatda hikoya boshlanishidagi umumiy nigoh asar matni davomida bo‘linib, tasvir yiriklashadi va yana jamlanadi. Bu jarayonda esa badiiy zamon ham osongina almashina boradi. Hikoya badiiyatining yana bir e‘tiborli jihati shuki, matnda ikki ulkan zamon va makon foniy va oxirat dunyo, o‘tkinchi va abadiy vaqt birlashtirilib yuboriladi. Asar uchinchi shaxs tilidan hikoya qilinar ekan, muallifga o‘z pozitsiyasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalay olish imkonini beradi. Bunda qahramonning nuqtayi nazari cheklanadi ya‘ni qahramon o‘z fikrlarini dialoglar, ichki dialoglar orqali bera oladi.

Nazar Eshonqulning boshqa bir hikoyasi “Qalb to‘zoni”da esa hikoya “men” tilidan bayon etiladi. Hikoya vaqti muharrir yigitning qo‘liga kelib qolgan qo‘lyozma tasviri bilan boshlanadi. Qo‘lyozma qahramoni esa inson miyasi (miya ramziy ma‘noda) bilan kun kuruvchi g‘ayrioddiy mahluq haqidagi qo‘rquvlarini bayon etadi. Qo‘lyozma nacha vaqt avval yozilgan bo‘lib, muharrir yigit nuqtayi nazari bilan qo‘lyozmadagi voqelik vaqti bir chiziqqa birlashtiriladi. Natijada hikoyadagi umumiy badiiy vaqt o‘tgan va hozirgi zamoni tashkil etadi. Har ikki qahramon nuqtayi nazari ham bir nuqtada jamlanadi. Bular esa asarga hikoya ichida hikoya shaklini beradi. Rovi qahramonlarning xabardorlik darajasiga ko‘ra nuqtayi nazarlari farq qiladi, albatta. Ya‘ni muharrir va kitobxon faqat qo‘lyozma egasining nigohidan o‘tkazilgan narzlarnigina ko‘ra oladi. Bu o‘rinda muharrir nuqtayi nazarining xabardorlik jihatidan cheklanganini ko‘rishimiz mumkin. Muallif ham qahramon xabardor bo‘lmagan yoki ishtirok etmagan voqealarni bera olmaydi. Shuningdek, “tasvir vaqti bilan tasvirlangan vaqt orasidagi masofaga ko‘ra, tashqi va ichki nuqtayi nazar” [1:67] sifatida ham tasniflanadi. Bu jihatdan hikoyadagi badiiy zamon – retrospektiv vaqtni ifodalaydi: muharrir bugungi voqelikning qahramoni, qo‘lyozma egasi esa o‘tmish voqeligining ishtirokchisidir.

Umuman olganda, “badiiy asarda turli vaqt rejalarining kombinatsiyasi, birinchidan, tasvirlangan shaxsning nuqtai nazarini (bu holda, xarakter) va ikkinchidan, tavsiflovchi shaxsning (muallif-hikoyachi) nuqtai nazarini birlashtirish

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

orqali olinadi” [2] Bu o‘rinda biz e‘tibor qaratadigan yana bir masala makon-zamon xususiyatlari jihatidan nuqtai nazar - hikoya qiluvchining o‘rni makon va zamonda qat’iy belgilangan, aniqlangan qahramonning o‘rni bilan mos kelishidir. Ya’ni hikoyachi ayni makon va zamonda turib qahramon nuqtayi nazarini ham yoritadi. Ijodkorning “Bevaqt chalingan bong” hikoyasida ham roviy aynan shunday pozitsiyada turadi. Barcha voqealarni shu hodisalar qarshisida qahramonlar bilan bir vaqtda va makonda turib bayon etadi. Bu holat “Bahorning chuvoqli kunlari kotib uni baliq oviga olib borar, odamlar begim kunlari tong paytlari tamaddi to‘la ro‘zg‘or xaltasini zo‘rg‘a ko‘targancha qo‘lga qarab ketayotgan qorovulni va uzun egma qarmoqlarni yelkasiga tashlab, xas shlyapani oliftalarcha chakkasiga qo‘ndirgan kotibni ko‘rib qolishardi...” [4:60] kabi bayoniy tasvirlarda ham, dialoglarda ham ko‘zga tashlanadi. Dialoglarda roviy nigohi qahramonning nutqi, uning bo‘yoqdorligi hamda qiyofasiga qaratiladi: “- Siz mening onam haqida gapirdingizmi? – so‘radi qorovul xuddi qarz so‘rayotganday biroz tutilib muloyim va zaharli ohangda. – Xo‘sh, gapirsam nima qilibdi? – dedi kotib uning kirga botgan bo‘yniga qarab aftini bujmaytirarkan gapni bepisand kesdi...” [4:82] Hikoyadagi roviy nuqtayi nazari shu tarzda voqealar va tasvirlar ketma-ketligini belgilab boradi.

Xullas, badiiy asardagi nuqtayi nazar nafaqat roviyning muayyan zamon va makon, ijtimoiy jarayondagi o‘rnini, balki tasvirlanayotgan voqea-hodisalarga muallifning ham munosabatini, yondashuvini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рыбальченко Т.Л. Образный мир художественного произведения и аспекты его анализа: Учебно-методическое пособие. – Томск: Изд-во Том. ун-та, 2012. – 130 с.
2. Успенский Б.А. Поэтика композиции. - СПб.: Азбука, 2000. - 348 с. <https://philologos.narod.ru>
3. Типология точек зрения в художественном произведении. <https://www.quillibris.com/>
4. Eshonqul N. Saylanma: I tom. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 512 b.